ISNN 3030-3907

2026/4
VOLUME 4

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/4 VOLUME 4

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

JIYDA O‘SIMLIGINING TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI

Erkinova Intizor Jasur qizi
Samaarqand davlat tibbiyot universiteti farmatsiya fakulteti talabasi
Baymurodov Esan Suyunovich
Ilmiy rahbar: Samarqand davlat tibbiyot universiteti farmakognoziya va farmatsevtik texnologiya kafedrasi assistenti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada jiyda o‘simligining tibbiyotdagi ahamiyati ilmiy va amaliy jihatdan batafsil yoritilgan. Unda o‘simligining botanik xususiyatlari, kimyoviy tarkibi hamda tarkibida mavjud bo‘lgan biologik faol moddalar-vitaminlar, flavonoidlar, taninlar va mikroelementlarining inson organizmiga ta’siri tahlil qilingan. Maqolada jiydaning asosiy farmakologik xususiyatlari, jumladan yallig‘lanishga qarshi, antibakterial, antioksidant, qotiruvchi va tinchlantiruvchi ta’sirlari ilmiy asosda bayon etilgan. Shuningdek, uning oshqozon-ichak tizimi, nafas yo‘llari, yurak-qon vaasab tizimi kasalliklarida qo‘llanilishi aniq misollar bilan tushuntirilgan. Bundan tashqari, jiydani amaliyotida qo‘llash usullari- damlama, qaynatma, kukun va tashqi vosita sifatida foydalanish yo‘llari keltirilganhamda uning ehtiyot choralari va qarshi ko‘rsatmalari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: dorivor o‘simlik, fitoterapiya, kimyoviy tarkib, flavonoidlar, taninlar, vitaminlar, antioksidantlar, yallig‘lanishga qarshi, antibakterial ta’sir, oshqozon-ichak kasalliklari, diareya, bronxit, yurak-qon tomir tizimi, asab tizimi , damlama, qaynatma, xalq tabobati, farmakologik xususiyatlar.

Аннотация. В данной статье подробно освещено значение растения джийда в медицине с научной и практической точек зрения. Рассмотрены его ботанические особенности, химический состав, а также влияние содержащихся в нём биологически активных веществ — витаминов, флавоноидов, танинов и микроэлементов — на организм человека. В статье научно обоснованы основные фармакологические свойства джийды, включая противовоспалительное, антибактериальное, антиоксидантное, вяжущее и седативное действие. Также приведены конкретные примеры применения растения при заболеваниях желудочно-кишечного тракта, дыхательных путей, сердечно-сосудистой и нервной систем. Кроме того, описаны способы практического применения джийды — в виде настоев, отваров, порошков и наружных средств, а также указаны меры предосторожности и противопоказания.

Ключевые слова: лекарственное растение; фитотерапия; химический состав; флавоноиды; танины; витамины; антиоксиданты; противовоспалительное действие; антибактериальное действие; заболевания

ISSN 3030-3907

желудочно-кишечного тракта; диарея; бронхит; сердечно-сосудистая система; нервная система; настой; отвар; народная медицина; фармакологические свойства.

Abstract. This article provides a detailed scientific and practical overview of the medical significance of the jujube plant. It examines its botanical characteristics, chemical composition, and the effects of biologically active compounds such as vitamins, flavonoids, tannins, and trace elements on the human body. The main pharmacological properties of jujube, including anti-inflammatory, antibacterial, antioxidant, astringent, and sedative effects, are scientifically substantiated. The article also explains its application in the treatment of gastrointestinal, respiratory, cardiovascular, and nervous system diseases with specific examples. In addition, practical methods of using jujube—such as infusions, decoctions, powders, and external applications—are described, along with precautions and contraindications.

Keywords: medicinal plant; phytotherapy; chemical composition; flavonoids; tannins; vitamins; antioxidants; anti-inflammatory effect; antibacterial effect; gastrointestinal diseases; diarrhea; bronchitis; cardiovascular system; nervous system; infusion; decoction; traditional medicine; pharmacological properties.

KIRISH.

Dorivor o‘simliklar inson salomatligini saqlashda va turli kasalliklarni davolashda qadim zamonlardan buyon muhim o‘rin egallab kelmoqda.Shunday dorivor o‘simliklardan biri jiyda bo‘lib, u o‘zining boy kimyoviy tarkibi va keng qamrovli shifobaxsh xususiyatlari bilan ajralib turadi. Jiyda o‘simligi Markaziy Osiyo hududida, jumladan O‘zbekiston sharoitida keng tarqalgan bo‘lib, xalq tabobatida uzoq yillardan beri qo‘llanilib kelinadi. Uning mevasi, bargi va po‘stlog‘i turli kasalliklarni davolashda samarali vosita sifatida ishlatiladi. Ayniqsa, oshqozon-ichak tizimi kasalliklari, nafas yo‘llari muammolari, yurak-qon tomir tizimi buzilishlari hamda asab tizimi kasalliklarida jiydaning ahamiyati katta. Jiyda – jiydadoshlar oilasiga mansub, tarkibida 40-65% qand, oqsil, vitaminlar (B2,B2,P.P,E) va kaliy-fosfor tuzlari mavjud shifobaxsh daraxt yoki buta. Xalq tabobatida meva va barglari ich ketishi, nafas yo‘llari shamollashi va kamqonlikni davolashda,shuningdek, xotirani mustahkamlash uchun damlama sifatida keng qo‘llaniladi.

Jiydaning tarkibi va ozuqaviy qiymati.

Jiyda mevasi nafaqat dorivor, balki yuqori ozuqaviy qiymatga ega bo‘lgan, mahsulot hisoblanadi. Uning tarkibida biologik faol moddalar organizm uchun zarur bo‘lgan ko‘plab funksiyalarni qo‘llab-quvvatlaydi[1].

ISSN 3030-3907

1-Jadval

	Tarkibiy qism	Moddalar/subkom-ponentlar	O‘rtacha miqdori (%)	Organizm uchun foydasi
1	Asosiy oziq moddalar	Uglevod (glyukoza, fruktoza)	40-60%	Asosiy emergiya manbai, mushak va miya faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi.
2		Oqsil	5-10%	Hujayra va to‘qimalar tiklanishi , immunitetni qo‘llab-quvvatlaydi.
3		Yog‘lar	0.5-1%	Energiya manbai, yog‘da eriydigan vitaminlar bilan birga ishlaydi.
4	Vitaminlar	C vitamin(askorbin kislota)	15-20mg /100g	Immunitetni mustahkamlaydi, antioksidant xususiyatga ega.
5		A vitamin(retinol)	200-300IU/ 100g	Ko‘rish , teri va soch sog‘lig‘ini qo‘llab-quvvatlaydi.
6		B guruh vitaminlari (B1,B2,B6)	0.05-0.2mg/ 100g	Asab tizimi va metabolizmni tartibga soladi.
7	Mineral moddalar	Kaliy(K)	200-250mg/ 100g	Yurak faoliyati va qon bosimini me’yorda ushlab turadi.
8		Kalsiy (Ca)	20-30mg/ 100g	Suyak va tish sog‘lig‘i uchun zarur
9		Temir (Fe)	2-3mg/100g	Qon tarkibini yaxshilaydi, kamqonlikni oldini oladi
10		Magniy (Mg)	15-20mg/100g	Mushak va asab faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi.
11	Biologik faol moddalar	Flavonoidlar	0.5-1%	Antioksidant , yallig‘lanishga qarshi ,

ISSN 3030-3907

				qarish jarayonini sekinlashtiradi
12		Taninlar	1-2%	Ich ketishini to‘xtatadi oshqozon-ichak tizimini himoya qiladi.
13		Organik kislotalar	0.5-1%	Hazm jarayonini yaxshilaydi, metabolizmni rag‘batlantiradi.
14		Antioksidant birikmalar		Hujayralarni erkin radikallardan himoya qiladi
15	Qo‘shimcha komponentlar	Tolalar (kletchatka)	5-7%	Hazmni yaxshilaydi, ichak faoliyatini tartibga soladi
16		Pektin moddalar	2-3%	Qon shakarini nazorat qiladi, ichak mikroflorasini qo‘llab-quvvatlaydi.
17		Suv (namlik)	70-75%	Organizm uchun suyuqlik manbai, toksinlarni chiqarishga yordam beradi.

Tibbiyotda qo‘llanilishi.

Jiyda o‘simligi qadimdan xalq tabobatida turli kasalliklarni davolash va sog‘liqni mustahkamlashda ishlatilgan. Uning mevasi, bargi, gullari va po‘stlog‘i tarkibidagi biologik faol moddalar turli organlar va tizimlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi[2].

Oshqozon-ichak tizimi kasalliklarida.

Kasalliklar: gastrit, kolit, diareya(ich ketish), oshqozon shilliq qavati yallig‘lanishi

Ta’sir:

*Taninlar ichak devorini qoplaydi, suyuqlik yo‘qotilishini kamaytiradi va diareyani to‘xtatadi.

*Organik kislotalar hazm jarayonini rag‘batlantiradi .

*Flavonoidlar yallig‘lanishga qarshi ta’sir ko‘rsatadi.

Qo‘llash usuli:

*1 osh qoshiq quritilgan jiyda mevasi 200 ml suvda 10-15 daqiqa qaynatiladi. Kuniga 2-3 marta ichiladi.

ISSN 3030-3907

*Ich ketishda jiyda mevasining kukuni 1 choy qoshiqdan qabul qilinadi.
Izoh: Diareya, dispepsiya va oshqozon-ichak diskomfortida samarali vosita hisoblanadi.

Nafas yo‘llari kasalliklarida

Kasalliklar: bronxit, yo‘tal, tomoq yallig‘lanishi
Ta’sir:
*Jiyda ekstrakti yallig‘lanishni kamaytiradi
*Balg‘amni suyultiradi va chiqarishni osonlashtiradi
*Tanadagi infeksion jarayonlarga qarshi tabiiy himoya beradi
Qo‘llash usuli:
*Quritilgan jiyda mevasi va barglar damlab ichiladi(infuz)
*200ml qaynoq suvga 1 osh qoshiq quritilgan meva yoki barg qoyib 20 qaqiqa damlanadi
Izoh: Shamollash, yo‘tal va bronxitda davolashga yordam beradi.

Yurak-qon tomir tizimi kasalliklarida

Kasalliklar: gipertenziya(qon bosimi oshishi), yurak ishemik kasalliklari
Ta’sir:
*Kaliy yurak faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi, qon bosimini me’yorda ushlab turadi
*Antioksidant moddalar yurak mushaklarini erkin radikallar ta’siridan himoya qiladi.
Qo‘llash usuli:
*Meva va po‘stlog‘idan tayyorlangan qaynatmalar va damlamalar ichiladi
*Kuniga 1-2 marta 100-150 ml miqdorda tavsiya qilinadi
Izoh:Yurak faoliyatini yaxshilash va qon bosimini normallashtirishda yordam beriladi.

Asab tizimi va psixologik salomatlikda

Kasalliklar: stress, asabiylik, uyqusizlik
Ta’siri:
*Tabiiy sedativ xususiyat bilan asab tizimini tinchlantiradi.
*B6 vitamini va flavonoidlar asab impulslarini normallashtiradi
*Uyqu sifatini yaxshilaydi
Qo‘llash usuli:
*Jiyda bargi damlamasi yoki qaynatmasi 30 daqiqa damlab ichiladi
*Kuniga 1-2 stakan ichish tavsiya qilinadi
Izoh: Tinchlantiruvchi vosita sifatida xalq tabobatida keng qo‘llaniladi.

Teri kasalliklari va yaralarda

Kasalliklar**:** teri yallig‘lanishlari, kuyishlar, yara va chandiqlar
Ta’siri:

ISSN 3030-3907

*Tanin va flavonoidlar yallig‘lanishni kamaytiradi.
*Po‘stlog‘idan tayyorlangan damlama yaralarni tezroq bitishiga yordam beradi.
Qo‘llash usuli:
*Tashqi kompress sifatida qo‘llanadi
*Yaraga toza damlama surtiladi yoki bandaj ostiga qo‘yiladi
Izoh: Terini himoya qilish va yallig‘lanishni kamaytirishda samarali

Immun tizimini mustahkamlashda

*C vitamini va flavonoidlar immunitetni oshiradi
*Tabiiy antioksidantlar organizmni infeksiyalardan himoya qiladi
Qo‘llash usuli:
* Meva yoki mevaning qaynatmasi muntazam ichiladi.
*Xavfsiz va tabiiy profilaktika vositasi sifatida ishlatiladi.

Jiyda o‘simligi tibbiyotda ko‘p qirrali dorivor vosita sifatida ishlatiladi. Uning farmakologik ta’sir oshqozon- ichak tizimi,nafas yo‘llari, yurak-qon tomir tizimii, asab tizimi va teri kasalliklarida aniq isbotlangan. Shuningdek, immunitetni mustahkamlashda va stressni kamaytirishda foydali. Uning xavfsizligi va fitoterapiyada keng qo‘llash imkonini beradi.

Qo‘llashga qarshi ko‘rsatmalar

Jiyda tabiiy va xavfsiz dorivor vosita bo‘lsa-da, ayrim holatlarda ehtiyotkorlik bilan ishlatilishi kerak. Quyidagi ko‘rsatmalar tibbiyotda muhim hisoblanadi[3].

Allergik reaksiyalar

*Jiyda meva, barg yoki po‘stlog‘iga individual allergiya bo‘lish mumkin.
*Allergiya belgilari: terida toshmalar, qichishish, shishish yoki nafas olish qiyinlashishi.
*Bunday holatlarda darhol foydalanishni to‘xtatishvaa shifokor bilan maslahatlashish zarur.

Oshqozon-ichak tizimi muammolari

*Haddan tashqari iste’mol qilish diareya yoki qabziyatni keltirib chiqarishi mumkin
*Gastrit yoki oshqozon yarasi bor bemorlarda shifokor nazorati ostida ishlatilishi tavsiya qiilinadi.

Homiladorlik va emizish

*Homilador ayollar va emizikli onalar jiydani faqat shifokor tavsiyasi bilan qabul qilishlari kerak.
*Ba’zi komponentlar homila rivojlanishiga ra’sir qilishi yoki allergik reaksiyani kuchaytirishi mumkin.

Bolalarda qo‘llash

ISSN 3030-3907

*Bolalarda dozani diqqat bilan hisoblash kerak.

*Kichik yoshdagi bolalarda haddan tashqari iste'mol oshqozon va ichak muamolarigaa olib kelishi mumkin.

Surunkali kasalliklarr va dorilar bilan muvofiqlik

*Yurak yoki qon bosimi dorilari qabul qilayotgan bemorlar jiydani shifokor bilan maslahatlashmasdan ichmasligi kerak.

*Antikoagulyant (qon suyultiruvchi) dorilar bilan muvofiqligi haqida ehtiyotkorlik zarur.

Jiydani qanday tanlash va saqlash kerak

Rangi: sarg'ish yoki och jigarrang. Quruq, toza va mog'orsiz bo'lishi kerak. Yoqimli hidli, begona hidlarsiz. Juda qattiq yoki nam bo'lmasligi kerak.

Saqlash: Quruq va salqin joyda saqlanadi(10-20 C) .Yopiq idishda(shisha banka yoki mato xalta).Quyosh nuri tushmaydigan joyda. Quritilgan jiyda: 1-2 yilgacha. Yangi jiyda: muzlatkichda 5-7 kun. Sifatli jiyda-quruq, toza va tabiiy ko'rinishda bo'ladi, uni to'g'ri saqlash esa foydali xususiyatlarini saqlab qoladi.

XULOSA.

Jiyda – yuqori ozuqaviy va dorivor qiymatga ega bo'lgan muhim o'simliklardan biridir. Uning tarkibidagi vitaminlar, mineral moddalar, flavonoidlar va taninlar organizmga kompleks ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa jiyda oshqozon-ichak tizimi kasalliklari, nafas yo'llari yallig'lanishlari, yurak-qon tomir muammolari hamda asab tizimi buzilishlarida samarali tabiiy vosita sifatida qo'llaniladi. Shu bilan birga, jiyda immunitetni mustahkamlash, yallig'lanish jarayonlarini kamaytirish va organizmni himoya qilishda ham muhim ahamiyatga ega. Uning tabiiyligi, xavfsizligi va keng qo'llanish imkoniyati uni xalq tabobatida hamda zamonaviy fitoterapiyada qimmatli o'simlik sifatida ajratib turadi. Tog'ri tanlash, saqlash va me'yorida foydalanish jiydaning foydali xususiyatlarini to'liq namoyon etadi. Shu sababli jiyda o'simligini ilmiy asosda o'rganish va amaliy tibbiyotda keng qo'llash istiqbollari yuqori hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Libizov N.I., Zelemenskiy S.E .Sumax skumpiya. M., 1953
2. Mixaylov A.N- Ximiya dubyashix veshestv i protsessov dubleniya. M., 1953
3. Mashkovskiy M.D- Lekarstvennme sredstva.CH.I.i II.M., "Meditsina" 1993
4. Muravyova D.A- Farmakognoeiya.M., "Meditsina", 1991.
5. Xolmatov.X.X., Ahmedov U.A Farmakognoziya. Toshkent, Abu Ali ibn Sino,2005
6. Farmakognoziya asoslari. I-qism: o'quv qo'llanma\.N.D.Kodirov,M.B.Usmonova, G.R.Xasanova,S.M.Olimov.-Samarqand:Tibbiyot Ko'zgusi,2023. -136b

ISSN 3030-3907

7. Farmakognoziya asoslari. I-qism: o‘quv qo‘llanma\.N.D.Kodirov,M.B.Usmonova, G.R.Xasanova,S.M.Olimov.-Samarqand:Tibbiyot Ko‘zgusi,2023. -156b
8. A.A.Sultanov -Fitoterapiya asoslari.Toshkent,2012.
9. N.K.Komilov- Dorivor o‘simliklar va ularning xususiyatlari.Toshkent,2010.
10. Makarchikov,A.F.,Lakaye,B.,Gulyai,I.E.,Czerniecki,J.,Coumans,B.,Wins,P., .& Bettendroff,L.(2003).Thiamine triphosphate and thiamine triphosphatase activities: from bacteria to mammals.Cellular and Molecular Life Sciences CMLS,60,1477-1488
11. Kennedy ,D.O.(2016).B vitaminis and the brain: mechanisms, dose and efficacy-a review.Nutrients,8(2),68.
12. Boymurodov,E.S (2024).Preparation of Raw Materials from Medicinal Plant Parts .Research Journal of Trauma and Disability Studies, 3(2), 114-117.
13. Meliqulov,O.J.,Kodirov,N.D.,&Baymuradov,E.S (2022). 4-xlor-5,6-dimetiltieno (2,3-d) pirimidinning to‘yingan geterosiklik birikmalari bilan reaksiyasi.Ta’lim fidoyilari,18(5), 285-288.
14. Murodovna,J,D.,Ravshanovna,M.U., Azamatovna,F.G.,& Ergashboevna, A.Z (2022). Abu-the role of the teachings of Ali Ibn Sina the upbringing of a harmoniously developed generation.
15. Qodirov, N.D.,Qo‘yliyeva, M.U.,&Baymurodov.E.S(2022). DORILAR HAQIDA TUSHUNCHA, FARMAKOLOGIK XOSSALARI, SAQLASH UCHUN SHAROIT YARATISH USULLARI.Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences,1(8) 580-586.
16. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi- Botanika va farmakologiya bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami
17. Jamoldinovich, Komilov Baxrom va Do‘stmurodova Mashhura Isroilovna. "JIYDA O 'SIMLIGINING KIMYOVIY TARKIBI VA FOYDALI XUSUSIYATLARI." Xalqaro ilmiy jurnal tadqiqot markazining hamkor konferentsiyalari . jild. 1. 2025 yil[1].
18. Norboyeva NZ, Tursunboev XE JIYDA (ELAEAGNUS L.) O‘SIMLIGINING BIOLOGIYASI VA SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI //Konferentsiyalar. – 2025. – T. 1. – No 7. – 155-157-betlar[2].
19. Jovbo‘riyeva, Umidabonu Tohirovna. "SURXON VOHASI FITONIMLARINING LINGVOPOETIK IMKONIYATLARI." ZAMONAVIY FAN VA TA'LIM MUAMMOLARI VA ISHLAB CHIQISHINING FRANCE-ILMIY SHARHI 1.13 (2026): 14-18.[3]

ISSN 3030-3907